

UDC: 343(045)(575.1)

JINOYAT ISHINI TUGATISH INSTITUTI TUSHUNCHASI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI

Mahmudov Sunnat Azim o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasи o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-5397-4736

e-mail: s.maxmudov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada sud-huquq islohotlarini amalga oshirish bosqichida jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilik normalari asosida jinoyat ishini tugatish instituti tushunchasi, uning o'ziga xos jihatlari va protsessual ahamiyati bayon etildi. Maqolada olimlar tomonidan jinoyat ishini tugatish instituti bo'yicha ilgari surilgan qarashlar orqali ushbu institutning qo'llanish doirasi o'rganildi. Olimlarning qarashlari va ilgari surgan g'oyalardan kelib chiqqan holda, jinoyat ishini tugatish tushunchasi ilmiy, nazariy, amaliy va qonunchilik normalari orqali tahlil etildi. Shu bilan birga, maqolada jinoyat ishini tugatishning jinoyat protsessida tutgan o'rni va ahamiyati, uning o'ziga xos jihatlari, jinoyat protsessual qonunchilik va sud-tergov amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar tahlil etildi. Maqolada olimlarning jinoyat ishini tugatish bo'yicha bergen fikrlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning bergen ta'riflaridagi tushunchalarni qonunchiligidan asosan ko'rib chiqish orqali jinoyat ishini tugatish tushunchasi bo'yicha mualliflik ta'rifi berildi. Tahlil natijalari yuzasidan jinoyat protsessida jinoyat ishini tugatish institutining tushunchasi, uning o'ziga xos jihatlari hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikdagi ahamiyati yuzasidan tegishli xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: jinoyat ishi, jinoyat ishini tugatish, javobgarlik, reabilitatsiya, javobgarlikdan ozod qilish, jinoyat ishini reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar bo'yicha tugatish, reabilitatsiya qilinmaydigan asoslar.

ПОНЯТИЕ И ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНСТИТУТА ПРЕКРАЩЕНИЯ УГОЛОВНОГО ДЕЛА

Махмудов Суннат Азим угли,

преподаватель кафедры «Уголовно-процессуальное право»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье были сформулированы понятие института прекращения уголовного дела, его специфика и процессуальное значение на этапе осуществления судебно-правовой реформы и на основе норм уголовного и уголовно-процессуального законодательства. В статье исследована область применения этого института на основе взглядов ученых относительно института прекращения уголовного дела. Исходя из взглядов и идей, выдвинутых учеными, проанализировано понятие прекращения уголовного дела через научные, теоретические, практические и законодательные нормы. Вместе с тем в статье исследованы роль и значение прекращения уголовного дела в уголовном процессе, его специфика и некоторые проблемы, возникающие в уголовно-процессуальном законодательстве и судебно-следственной практике. В статье дано авторское определение прекращению уголовного дела путем сравнительного анализа мнений ученых о прекращении уголовного дела, рассмотрения на основе

национального законодательства приведенных ими понятий. По результатам анализа были сделаны соответствующие выводы, предложения и рекомендации относительно понятия института прекращения уголовного дела в уголовном процессе, его специфики и значения в уголовном и уголовно-процессуальном законодательстве.

Ключевые слова: уголовное дело, прекращение уголовного дела, ответственность, реабилитация, освобождение от ответственности, прекращение уголовного дела по нереабилитирующему основанию, нереабилитирующие основания.

THE CONCEPT OF THE INSTITUTION OF TERMINATION OF A CRIMINAL CASE AND PROCEDURAL SIGNIFICANCE

Makhmudov Sunnat Azim ugli,

Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this article, at the stage of implementation of the judicial and legal reform, on the basis of the norms of criminal and criminal procedural legislation, the concept of the institution of termination of a criminal case, its specificity, and procedural significance was formulated. The article explores the scope of this institution on the basis of the views put forward by scientists regarding the institution of termination of a criminal case. Based on the views and ideas put forward by scientists, the concept of termination of a criminal case was analyzed through scientific, theoretical, practical, and legislative norms. At the same time, the article analyzes the role and significance of the termination of a criminal case in the criminal process, its specificity, and some problems that arise in criminal procedure legislation and judicial and investigative practice. The article gives the author's definition of the termination of a criminal case through a comparative analysis of the opinions of scientists on the termination of a criminal case, consideration on the basis of our legislation of the concepts contained in the definitions given by them. Based on the results of the analysis, relevant conclusions, proposals, and recommendations were made regarding the concept of the institution of termination of a criminal case in criminal proceedings, its specificity, and its significance in criminal and criminal procedure legislation.

Keywords: criminal case, termination of a criminal case, responsibility, rehabilitation, release from liability termination of a criminal case on non-rehabilitating grounds, non-rehabilitating grounds.

Kirish

Sud-huquq islohotlarini amalga oshirish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilikni liberallashtirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Mazkur vazifani hayotga tatbiq etish hamda jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishning mutlaqo yangi ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydag'i PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiysi qabul qilindi.

Mazkur Konsepsiyada jinoyat va jinoyat protsessidagi ayrim institutlarni takomillashtirish vazifasi belgilangan edi. Jinoyat ishini tugatish instituti ham shular jumlasidir. Zero, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchilikning samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Shunga ko'ra, jinoyat protsessida "jinoyat ishini tugatish" institutini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, mazkur institutni takomillashtirish-

ning yangicha metodologik asoslarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Jinoyat ishini tugatish masalasi qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, ushbu institut tushunchasi hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar sababli mazkur tahlqidot ishida, asosan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan foydalanildi. Shu bilan birga, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari

Amaldagi qonunchilik hujjalarda jinoyat ishini tugatish tushunchasining normativ-huquqiy ta'rifi mavjud emas. Shunday bo'lsa ham, bir qancha olimlar ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan tushuntirishga harakat qilishgan.

Xususan, rus olimi V.M. Kornukovning fikricha, "jinoyat ishini tugatish instituti ham moddiy, ham protsessual xarakterdagi muammolarni hal qilishga mo'ljallangan universal vositadir" [1, 88-89-b.].

Ushbu fikrni tahlil etadigan bo'lsak, avvalo, jinoyat ishini tugatish uchun moddiy huquqda asoslar bo'lishi lozim (amaldagi Jinoyat kodeksida jinoyat ishini tugatish asoslarining aksariyati belgilangan). Moddiy huquqda asoslar bo'lmadan turib, protsessual normalarga asosan ishni tugatish ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 8-bandida "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplananligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa", jinoyat ishining tugatilishi mumkinligi belgilangan.

Biroq mazkur norma Jinoyat kodeksi umumiy qismida javobgarlikdan ozod qilish

asoslaridan biri sifatida nazarda tutilmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida jinoyat ishini mazkur asos bo'yicha tugatishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Sababi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi normalari Ko-deksning Umumiyligini qismi normalariga asosan shakllantirilgan.

Shu bilan birga, javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi sababli jinoyat ishini tugatishda ushbu muammolar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Javobgarlikka tortish muddati o'tganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatishda ayrim muammoli holatlar ham mavjud. Qonunchilikda davomli jinoyatlar va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash masalasi aniq belgilab qo'yilmagan [2, 100-b.].

Yana bir muammo: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi birinchi qismining 1-3 va 8-bandalarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha jinoyat ishi tugatiladigan bo'lsa, jabrlanuvchi yoki fuqaroriy da'vogarning mulkiy huquqlari buzilish holatlarini amaliyotda ko'rishimiz mumkin. Fikrimizni quyida asoslashga harakat qilamiz. Misol uchun, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa, agar ayblanuvchi yoki sudlanuvchi (ayrim holatlarda ularning yaqin qarindoshlari) ariza bilan murojaat qilmas ekan, tergov yoki sud tomonidan shaxsning ayblilik masalasi hal qilinmasdan turib, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror yoki ajrim chiqariladi [3, 113-b.]

O.V. Michurin va S.N. Peretokin [4, 26-b.] jinoyat ishining tugatilishi tergovning yakuniy bosqichi ekanligi, unda ishning natijalari chiqarilishi, tergovchining ichki ishonchi shakllantirilishi va ishning har bir holati protsessual hujjatlarda ifodalanganligi, ish bo'yicha to'plangan dalillar uchun bo'shilq va ziddiyatlar aniqlanishini qayd etishgan.

Mazkur masalani milliy qonunchiligimiz asosida tahlil qiladigan bo'lsak, yuqorida olimlarning fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Chunki jinoyat ishining tugatilishi barcha

holatlarda surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi emas.

Jinoyat ishining tugatilishi surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Bunda jinoyat ishini tugatish haqidagi qaror ustidan shikoyat (protest) berilgan yoki berilmaganligiga qarab, uning yakuniy yoki yakuniy bosqich emasligini farqlash mumkin.

Fikrimizni asoslashga harakat qilamiz: agarda jinoyat ishi tugatilganidan so'ng ishni yuritishdan manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan shikoyat yoki protest keltirilmagan bo'lsa, jinoyat ishining tugatilishini surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi sifatida qabul qilish mumkin.

Shu bilan birga, jabrlanuvchi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi bilan yarashgan hamda buning natijasida jinoyat ishi sud tomonidan ayblilik haqidagi masala hal qilinmasdan tugatilgan taqdirda ham jinoyat ishining tugatilishini surishtiruv, tergov yoki sudning yakuniy bosqichi sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Sababi jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, yarashuv sud tomonidan tasdiqlangan taqdirda, jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili yarashuv to'g'risidagi ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash haqida iltimosoma berishi mumkin emas.

Biroq jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror yoki ajrim ustidan shikoyat berilgan taqdirda, shikoyat tegishli tartibda ko'rib chiqiladi va mazkur jarayon ma'lum ma'nda ish yuritishning davom ettirilishi sifatida ko'riliши mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksning 27-moddasiga asosan, protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar, shuningdek, jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo'lgan korxona, muassasa va tashkilotlarning vakillari Jinoyat-protsessual kodeksda belgilab qo'yilgan tartibda va muddatda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning protsessual haraka-

ti yoki qarori ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan taqdirda, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, himoyachi, jabrlanuvchi, fuqaroviylar da'vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari, ish korxona, muassasa, tashkilot yoki fuqaroning bergan xabari bilan qo'zg'atilgan bo'lsa, shu korxona, muassasa, tashkilot vakili yoxud fuqaro ushbu qaror ustidan prokurorga shikoyat qilish huquqiga ega hamda ularning mazkur huquqqa ega ekanligi jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi qaror chiqarilishi bilan tushuntiriladi.

Manfaatdor shaxslarning jinoyat ishini yuritishni tugatish to'g'risidagi qaror ustidan bergan shikoyati ko'rib chiqilib, qaror bekor qilingan taqdirda, ish yuritish umumiylar tartibda davom ettirilishi mumkin.

Shu sababdan ham, bizningcha, jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilishi ni barcha holatlarda ham ish yuritishning yakuniy bosqichi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas.

Rus olimi S.A. Filimonovning fikriga ko'ra, jinoyat ishini tugatish – bu surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning (sudyaning) jinoyat ishi yuzasidan qabul qilingan, ish bo'yicha ish yuritishni tugatish yoki shaxsning jinoyat sodir etilishiga aloqador emasligi to'g'risidagi protsessual qaroridir [5, 28-b].

Mazkur ta'rif orqali S.A. Filimonov ish yuritishni tugatishning ikkita alohida turini ko'rsatib bergan. Aniqrog'i, tegishli mansabdor shaxs tomonidan ish yuritilayotgan masala bo'yicha jinoyat ishi butunlay yoki uning bir qismi tugatilishi yoxud muayyan jinoyat ishi bir necha shaxslarga nisbatan yuritilayotgan bo'lsa, uni yuritish ayni bir shaxsga nisbatan tugatilishi mumkin.

Shuningdek, shaxsning jinoyat sodir etilishiga aloqador emaslik holati jinoyat ishini tugatishning barcha asoslariga to'g'ri kelmaydi. Chunki jinoyat ishini tugatishning aksariyat asoslarida (realibilitatsiya asoslaridan tashqari) shaxs jinoyat sodir etilishida bevo-

sita ishtirok etishi orqali uning sodir etilishi-ga aloqador bo'ladi.

A.S. Barabash, L.M. Volodina hamda S.A. Sheyferlarning bayon etishicha, jinoyat ishini tugatish ko'p qirrali hodisa bo'lib, jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida protsessual harakat shakllaridan biri sifatida ko'riliши lozim.

Ushbu olimlarning fikricha, jinoyat ishini tugatish dastlabki tergovni tugatishni nazarda tutadigan yuridik fakt bo'lib, shaxslarning asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishining protsessual kafolati hisoblanuvchi mustaqil yuridik institutdir [6, 4-5-b].

Bizningcha, mazkur ta'rifda jinoyat ishini yuritishning dastlabki tergovni tugatish sifatida ta'riflanishi ko'rib chiqilayotgan tushuncha mazmunining tor doirada sharhlanishi hisoblanadi.

Sababi jinoyat ishini tugatish instituti na-faqat dastlabki tergov, balki jinoyat ishini yuritishning barcha bosqichlarida qo'llanishi mumkin. Bunda yagona istisno sifatida hukmni ijro etish bosqichini ko'rsatishimiz mumkin. Zero, mazkur bosqichda jinoyat ishini yuritishni tugatishga oid normalarni qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

A.Ya. Dubinskiy ham yuqorida sanab o'tilgan ayrim olimlar kabi, jinoyat ishini tugatish institutini dastlabki tergovning oxirgi bosqichi sifatida ta'riflaydi. Uning qayd etishicha, mazkur bosqichda jinoyat ishi bo'yicha olib borilgan protsessual harakatlarning natijalari sarhisob qilinadi hamda ish yuritishni tugatish bilan bog'liq bir qator yangi protsessual harakatlar amalga oshiriladi [7, 25-b.].

N.V. Jigin va F.N. Fatkullinlar jinoyat ishini tugatish institutini vakolatli mansabdor shaxsning ish yuritishni davom ettirishni rad etish to'g'risidagi qarorini ifodalovchi protsessual harakat sifatida ta'riflaydi [8, 30-b.].

Mazkur fikrni qisman qo'llab-quvvatlash mumkin. Sababi ushbu institut mazmunini tashkil etuvchi huquq normalari jinoyat ishini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishning

protsessual tartibi hamda unga qo'yiladigan talablarni tartibga soladi.

S.A. Sheyfer esa jinoyat ishining tugatilishini shaxsning noqonuniy yoki asossiz ta'qib qilinishining oldini olishga qaratilgan protsessual kafolat, shuningdek, odil sud-lovning umumiyl protsessual kafolati deb ta'riflaydi. Uning fikricha, jinoyat ishini tugatish instituti aybsiz shaxslarni javobgarlikka tortishdan bosh tortish yoki ularni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning protsessual tartibini tartibga soladi [9, 4-b.].

Bizningcha, S.A. Shaferning yuqoridagi cha ta'rifi biz tahlil qilayotgan tushunchaga nisbatan shaxsning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish kafolati sifatida yonda-shuvni nazarda tutsa-da, ushbu tushunchaning mazmunini to'liq ochib bermaydi. Zero, jinoyat protsessida bu kabi kafolatlarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

O.V. Volinskaya jinoyat ishi tugatilishi ni muayyan bir hayotiy masalani jinoyat-protsessual vositalar yordamida o'rganishni yakunlash hamda ish yuritishning texnik shartlarini bajarishdan iborat bo'lgan jinoyat ishini tamomlash shakllaridan biri sifatida belgilaydi [10, 57-b.].

Fikrimizcha, mazkur ta'rifda ko'rsatilganidek, jinoyat ishini tugatish institutining jinoyat-protsessual ish yuritishni tamomlash shakllaridan biri sifatida ta'riflanishi o'rinci hisoblanadi. Zero, milliy qonunchiligidan jinoyat ishini tamomlash bir qator usullar orqali amalga oshirilib, jinoyat ishini tugatish ana shunday usullardan biridir.

G.V. Drozdov, V.I. Kachalov, O.V. Kachalovalarning fikricha, jinoyat ishini tugatish – bu dastlabki tergovni tugatishning bir shakli bo'lib, tergovchi keyinchalik sudga yubormasdan o'z qarori bilan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni yakunlaydi [11, 35-b.].

Ushbu ta'rifda ham, yuqorida keltirilganidek, jinoyat ishini yuritish tushunchasi tor doirada qabul qilinib, faqatgina dastlabki tergovni tugatish sifatida keltirilgan. Bunda tashqari, mazkur ta'rifda tergovchi ish

yuritishni nimaga asoslanib yakunlayotgani va nima uchun ishni sudga yubormasligi sabablarini aniq asoslantirilmagan.

B.T. Bezlepkin ham yuqorida ayrim olimlarning ta'riflarida keltirib o'tilgani kabi, jinoyat ishini tugatishni kelgusida ish yuritishni istisno etuvchi holatlar yoki shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish uchun asoslar mavjudligi sababli amalga oshiriladigan dastlabki tergovning tugashi, deb hisoblaydi [12, 140-b].

A.V. Grinenko esa ko'rib chiqilayotgan tushunchaga kengroq ta'rif beradi. Uning fikricha, jinoyat ishini tugatish "davlatning jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni davom ettirish va shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishni rasman rad etishi", shuningdek, mavjud barcha huquqiy munosabatlar (oqibatlar)ni tugatishdir [13, 63-71-b].

Bizningcha, mazkur ta'rifda keltirilgan "mavjud barcha huquqiy munosabatlar (oqibatlar)ni tugatish" to'g'risidagi fikrni to'liq qo'llab-quvvatlab bo'lmaydi. Sababi jinoyat ishining tugatilishi natijasida yuzaga kelgan muayyan huquqiy oqibatlar saqlanib qoladi. Masalan, shaxsga nisbatan yuritilgan jinoyat ishining tugatilishi natijasida sudlanganlik holati kelib chiqmasa-da, mazkur holat kelgusida ushbu shaxs tomonidan sodir etilgan yangi jinoyat bo'yicha muayyan qaror qabul qilishda uning shaxsini tavsiflovchi xususiyatlardan biri sifatida inobatga olinishi mumkin.

Bir qator mualliflar jinoyat ishini tugatish tushunchasiga ta'rif berishda jinoyat ishini tugatish belgilari hamda ish yuritish jarayonida hal qilinadigan vazifalarga ko'proq e'tibor qaratadilar.

R.X. Yakupov o'z mualliflik ta'rifida jinoyat ishini tugatish uchun bir qator "protsessual harakatlar majmuyini amalga oshirish zarur"ligini qayd etadi [14, 322-b].

Fikrimizcha, mazkur ta'rif o'ta umumiy bo'lib, jinoyat ishini tugatish tushunchasining mazmunini to'liq ochib bermaydi va uning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi.

Yu.N. Belozerovning bayon etishicha, jinoyat ishini tugatish davomida ish bo'yicha olib borilgan harakatlarning natijasi umumlashtiriladi hamda to'plangan va tekshirilgan dalillarning umumiyligini baholash asosida ish bo'yicha keyingi ish yuritishning mumkin emasligi haqida xulosa chiqariladi.

Bizningcha, mazkur ta'rif ham o'zida ma'lum darajada umumiyligini xususiyatlarni aks ettirgan. Zero, jinoyat ishini yuritish davomida deyarli barcha qarorlarni qabul qilishda, yuqoridagi ta'rifda keltirilganidek, "olib borilgan harakatlarning natijasi umumlashtiriladi hamda to'plangan va tekshirilgan dalillarning umumiyligini baholash asosida" tegishli qaror qabul qilinadi [15, 45-b].

Mahalliy olimlarimizdan B.B. Murodov esa "jinoyat ishini tugatish" tushunchasiga nisbatan kengroq ta'rif beradi. Uning bayon etishicha, jinoyat ishini tugatish – bu vakolatli mansabdar shaxsnинг ish bo'yicha to'plangan dalillarni baholash orqali qonunda nazarda tutilgan muayyan asosni qo'llash uchun barcha asoslar o'z isbotini topganiga ishonch hosil qilib, jinoyat ishi yurituvini tugatish xususida qat'iy xulosaga kelishi va ishni protsessual qaror yoki ajrim chiqarish orqali tamomlashidir [16, 78-b].

Tadqiqot natijalari tahlili

Yuqorida keltirib o'tilgan tahlillardan keilib chiqqan holda, jinoyat ishini tugatish institutining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

birinchidan, mazkur institut jinoyat va jinoyat-protsessual normalarning yig'indisidan iborat bo'lib, jinoyat ishini tugatishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishning asoslari va protsessual tartibi, shuningdek, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini hamda ularni ta'minlashning protsessual kafolatlarini o'z ichiga oladi;

ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan faoliyat tegishli protsessual harakatning amalga oshirishi (qaror yoki ajrim chiqarilishi) bilan o'z nihoyasiga yetadi;

uchinchidan, ish bo'yicha gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) uchun jinoiy javobgarlik to'g'risidagi masala hal etiladi;

to'rtinchidan, ushbu institut jinoyat protsessining deyarli barcha bosqichlariga taalluqli hisoblanadi (*hukmni ijro etish bundan mustasno*).

Jinoyat ishini tugatish bilan bog'liq ilmiy munozaralarda uning alohida institut hisoblanishi yoki hisoblanmasligi haqida bahslar bor. Mavzuga oid tadtiqotlar tahlili aksariyat olimlarning jinoyat ishini tugatishni alohida institut sifatida qabul qilishlarini ko'rsatadi. Mazkur qarashni qo'llab-quvvatlagan holda, jinoyat ishini tugatishning alohida institut sifatida belgilarga egaligini "institut" tushunchasini tahlil qilish orqali ko'rib chiqamiz.

Umuman olganda, huquq nazariyasida "institut" tushunchasi bir huquq sohasi doirasidagi yoki sohalar o'rtasida kesishadigan, muayyan o'xshash sifatlarga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida huquqiy normalar guruhini bildiradi. Shu bilan birga, huquq instituti normalari umumiylar mazmunga ega bo'lishi, bir xil ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lishi hamda bir-birini to'ldirishi kerak.

Bundan tashqari, bir umumiy asosdan keilib chiquvchi ijtimoiy munosabatlarning turlicha ekanligi ularni tartibga soluvchi xilma-xil huquqiy normalarni ham nazarda tutadi.

Huquq institutining mazmuni alohida normativ-huquqiy hujjat yoki uning muayyan bir bo'limida mustahkamlangan tushunchalar, atamalar hamda boshqa normalarda o'z aksini topadi.

N.I. Matuzov, A.V. Malko hamda V.L. Kulpovlarning bayon etishicha, kamdan-kam hollarda muayyan huquq institutiga taalluqli bo'lган normalar bir nechta normativ-huquqiy hujjatlarda aks etishi mumkin [17, 244-245-b].

Bizningcha, mazkur qarash noo'rin bo'lib, muayyan huquq institutiga oid normalarning aniq bir normativ-huquqiy hujjat yoki

uning muayyan bir qismida mustahkamlab qo'yilishi, avvalo, turli davlatlar milliy qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi va shunga ko'ra, turlicha ifodalanishi mumkin.

Biroq bu bilan muayyan huquq instituti, shu jumladan, jinoyat ishini tugatish institutiga oid normalar turli normativ-huquqiy hujjatlar yoki uning turli qismlarida aks etishi lozim, degan qarashdan yiroqmiz. Zero, jinoyat ishini yuritishga oid normalarning aniq bir bo'limda mustahkamlanishi mazkur institutning qo'llanilishini yana-da osonlashtiradi va amaliyotchilar uchun ham, huquq fanlarini o'rganuvchilar uchun ham muayyan qulayliklar yaratishga xizmat qiladi.

Jinoyat ishini tugatishning jinoiy ta'qibni to'xtatish tushunchasi bilan bog'liqligi masalasida ham ayrim mulohazalarning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasida jinoyat ishini tugatish hamda jinoiy ta'qibni to'xtatish bir-biriga juda o'xshash, shu bilan birga, o'zaro farqli xususiyatlarga ega bo'lган tushunchalar hisoblanadi. Mazkur ikkala tushuncha bir-biri bilan muayyan darajada bog'liq va ba'zida ulardan birining mavjud bo'lishi ikkinchisiga ta'sir qiladi.

Asosiy jihat shundaki, jinoyat ishini tugatish bilan barcha protsessual harakatlar to'liq hajmda yakunlanadi. Jinoiy ta'qibni tugatishda esa muayyan bir shaxs, ya'ni jinoyat qonuni bilan taqiqlangan biror-bir qilmishni sodir etishda gumon qilinayotgan (ayblanayotgan) shaxs yoxud jinoyat ekanligi o'rganilayotgan muayyan bir (yoki bir nechta) holatga nisbatan jinoiy ta'qib tugatiladi.

Fikrimizcha, o'rganilayotgan ikki tushuncha o'rtasidagi o'zaro farq muhim ahamiyat kasb etmaydi. Qisqacha qilib aytganda, jinoyat ishining tugatilishi bilan muayyan shaxsga nisbatan yoki muayyan holat yuzasidan jinoiy ta'qibning amalga oshirilishi ham to'xtatiladi [1, 88-89-b.]. Bunda jinoyat ishini tugatish jinoiy ta'qibni to'xtatish uchun

“asos” sifatida ko’rilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Shu o’rinda jinoyat ishini yuritishni tugatish institutining ijtimoiy xususiyatlariga ham alohida to’xtalib o’tish joiz. Jinoyat ishini tugatish institutining ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq etishda jinoiy hodisaning yuz berishi masalasiga “ijtimoiy nizo” sifatida qaralishi o’rinli bo’ladi.

Jinoyat-protsessual huquqi nazariyasining umumiy qoidalariga ko’ra, sodir etilgan jinoyat yuzasidan ijtimoiy nizolarni hal qilishning bir nechta muqobil variantlari mavjud:

1) jinoiy ta’qibdan maxsus shartlarsiz, mustaqil ravishda voz kechish;

2) ogohlantirish;

3) vositachilik (yarashuv).

Yuqorida sanab o’tilganlardan birinchi holat quyidagilarda aks etishi mumkin:

birinchidan, jinoiy javobgarlikka tortishning huquqiy jihatdan imkonsiz ekanligi (masalan, jinoyat tarkibi yo’qligi yoki javobgarlikka tortish muddati o’tib ketganligi);

ikkinchidan, jinoiy javobgarlikka tortishning faktik jihatdan imkonsizligi (masalan, dalillarni to’plashning mumkin bo’lgan barcha usullaridan foydalanilganligiga qaramasdan, ayblastish uchun dalillar yetarli emasligi);

uchinchidan, jinoyat fosh etilgan bo’lsa-da, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning maqsadga muvofiq emasligi. Qayd etish lozimki, mazkur holat jinoyat ishini tugatishning ogohlantirish usuli bilan ham chambarchas bog’liqdir.

Jinoyat ishini yuritishni tugatishning ogohlantirish chorasi sifatidagi xususiyatiga, ayniqsa, ingliz huquq tizimida alohida e’tibor qaratiladi [18, 108-b.]. Bunda ogohlantirishning bir nechta turlarini ko’rishimiz mumkin.

Ulardan birinchisi – “norasmiy ogohlantirish” bo’lib, u voyaga yetmaganlar tomonidan ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyat sodir etilgan taqdirda qo’llanishi mumkin. Bunday holda qo’shimcha choralar ko’rilmaydi.

Norasmiy ogohlantirishdan farqli ravishda “rasmiy ogohlantirish” bayonnomada qayd etiladi. Ammo u norasmiy ogohlantirishdan unchalik farq qilmaydi. Chunki bunday bayonnomada rasmiy jihatdan hech qanday huquqiy oqibatlarga olib kelmaydi.

Uchinchi variant “maxsus ogohlantirish” bo’lib, bu norasmiy va rasmiy ogohlantirishdan farqli o’laroq, jinoiy ta’qibga haqiqiy alternativa sanaladi.

Rasmiy ogohlantirishning mohiyati shundaki, bunda shaxsga nisbatan muayyan ta’sir choralar qo’llanilib, bu holat kelgusida ushbu shaxs tomonidan qayta jinoyat sodir etilgan taqdirda inobatga olinishi mumkin [19, 108-b.].

Jinoyat ishini yuritishni tugatishning ijtimoiy xususiyatlaridan yana biri – bu yarashuv institutining qo’llanilishidir. Bunda yuqoridagilardan farqli o’laroq, jinoyat ishi taraflarining xohish-irodasi yuqori ahamiyatga ega bo’ladi.

Aniqrog’i, jinoyat ishini yuritish taraflarning – jabrlanuvchi hamda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi, sudlanuvchi)ning o’zaro keli-shuvi va roziligi natijasida tugatiladi.

Xulosalar

Yuqorida keltirib o’tilgan tahlillar asosida “jinoyat ishini tugatish” tushunchasiga nisbatan quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

“Jinoyat ishini tugatish – bu vakolatli organlar yoki mansabdor shaxslar tomonidan jinoyat ishini qo’zg’atish yoki qo’zg’atilgan jinoyat ishi bo’yicha ish yuritishni istisno etadigan asoslarga ko’ra ish yuritishni tamomlashdir”.

Mazkur ta’rifda keltirilgan “vakolatli organlar yoki mansabdor shaxslar” deganda, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tushuniladi.

Shuningdek, jinoyat ishini tugatishning quyidagicha o’ziga xos xususiyatlarini ajratib ko’rsatishimiz mumkin:

– jinoyat ishini tugatish jinoyat-protses-sual qonunchilikda maxsus vakolat berilgan

organlar va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi;

– jinoyat ishini tugatish jinoyat-protses-sual qonunchilikda belgilangan maqsadlarga erishishning vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi;

– jinoyat ishini tugatish faqatgina qonunda belgilangan asoslar mavjud bo'lgandagina amalga oshirilishi mumkin;

– jinoyat ishini tugatish natijasida protsess ishtirokchilari uchun jinoyat ishini yuri-

tish munosabati bilan yuzaga kelgan huquqiy munosabatlarning tugatilishi bilan bog'liq huquqiy oqibatlar kelib chiqadi;

– jinoyat ishini tugatish jinoyat protsessining hukm chiqarilguniga qadar bo'lgan istalgan bosqichida, shuningdek, yuqori sudlar tomonidan quyi turuvchi sudlarning hukmlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida ham amalga oshirilishi mumkin;

– jinoyat ishini yuritish jinoyat protsessining alohida instituti hisoblanadi.

REFERENCES

1. Kornukov V.M. Rossiyskiy ugolovnyy protsess. Voprosy Osobennoy chasti [Russian criminal process. Issues of the Special Part: a course of lectures]. Saratov, 2010, pp. 88–89.
2. Mahmudov S. Javobgarlikka tortish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat ishini tugatishning o'ziga xos xususiyatlari [Some issues of dismissal of criminal cases in connection with the expiration of the limitation period for criminal responsibility]. *Lawyer Herald*, 2022, Tashkent, no. 1, pp. 96–102.
3. Mahmudov S. Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib, jinoyat ishini tugatishning ayrim jihatlari [Some aspects of the termination of a criminal case without solving culpability issue]. *Lawyer Herald*, 2020, Tashkent, no. 1, pp. 110–115.
4. Michurina O.V., Peretokin S.N. Obespecheniye zakonnosti i obosnovannosti prekrashheniya ugolovnogo dela [Ensuring the legality and validity of the termination of a criminal case]. *Russian investigator*, 2016, no. 7, p. 26.
5. Filimonov S.A. Prekrashheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya po nereabilitiruyushhim osnovaniyam [Termination of a criminal case and criminal prosecution on non-rehabilitating grounds]. Abstract of PhD thesis. Krasnodar, 2009, p. 28.
6. Barabash A.S., Volodina L.M. Prekrashheniye ugolovnykh del po nereabilitiruyushhim osnovaniyam v stadii predvaritel'nogo rassledovaniya [Termination of criminal cases on non-rehabilitating grounds at the stage of preliminary investigation]. Tomsk, 1986, p. 37.
7. Dubinskiy A.Ya. Prekrashheniye ugolovnogo dela v stadii predvaritel'nogo rassledovaniya [Termination of a criminal case at the stage of preliminary investigation]. Kiev, 1975, p. 25.
8. Jigin N., Fatkullin F. Predvaritel'noye sledstviye v sovetskom ugolovnom protsesse [Preliminary investigation in the Soviet criminal process]. Moscow, 1965, p. 30.
9. Sheyfer S.A. Prekrashheniye dela v sovetskom ugolovnom protsesse [Termination of the case in the Soviet criminal process]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1963, p. 4.
10. Volinskaya O.V. Prekrashheniye ugolovnogo dela i ugolovnogo presledovaniya: teoreticheskiye i organizatsionno-pravovyye problemy [Termination of a criminal case and criminal prosecution: Theoretical organizational and legal problems]. Moscow, 2007, p. 57.
11. Davidova Y.V., Kibalnik A.G., Solomonenko I.G. Primireniye s poterpevshim v ugolovnom prave [Reconciliation with the victim in criminal law]. Stavropol, 2002, p. 35.
12. Bezlepkhin B.T. Ugolovnyy protsess Rossii [Criminal process in Russia]. Moscow, 2008, p. 140.
13. Grinenko A.V. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 2008, pp. 63–71.
14. Yakupov R.Kh. Ugolovnyy protsess [Criminal process]. Moscow, 1998, p. 322.

15. Kussmal R. Vsyakoye prekrashheniye ugolovnogo presledovaniya reabilitiruyet [Any cessation of criminal prosecution rehabilitates]. *Russian justice*, 2000, no. 9, pp. 45–47.
16. Murodov B.B. Jinoyat ishini tugatish institutini takomillashtirish. [Improving the institution of termination of criminal proceedings]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Tashkent, 2018, p. 78.
17. Kulapov V.L. Teoriya gosudarstva i prava [Theory of state and law]. Moscow, 2014, pp. 244–245.
18. Gutsenko K.F., Golovko L.V., Filimonov B.A. Ugolovnyy protsess zapadnykh gosudarstv [The criminal process of Western states]. Moscow, 2001, p. 108.
19. Golovko L. Alternativy ugolovnomu presledovaniyu v sovremenном angliyskom prave [Alternatives to criminal prosecution in modern English law]. *Jurisprudence*, 1998, no. 3, pp. 108–113.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

4 / 2022

BOSH MUHARRIR:
Xodjayev Baxshillo Kamolovich
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ikrom Ergashev
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov
Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Yarmolik,
F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova
Musahih: M. Patillaryeva
Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.
Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
E-mail: tn.tdyu@mail.ru
Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 30.08.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 97.
TDYU tipografiyasida chop etildi.